

**TALABALARINING O'QUV FAOLIYATINING O'ZIGA XOS
MAZMUNI VA MOHIYATI HAMDA ULARDAGI MUVAFFAQIYATNI
TA'MINLASHNING PSIXOLOGIK OMILLARI**

Ergasheva Feruzaxon Jaxongir qizi

Qo'qon shahar 1-son texnikumi chet tili o'qituvchisi

Talabalar o'quv faoliyati muvaffaqiyatining muhim sharti oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, diskomfort tuyg'usini bartaraf qilish, mikromuhitda yuz beradigan ziddiyatlarning oldini olishdan iboratdir.

Odatda quyi kurslardagi talabalar o'quv faoliyatini mumkin qadar to'laroq tasavvur etishga harakat qiladilar, lekin uni boshqarish to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lmaydilar. Ko'pincha ular o'quv faoliyatini boshqarish deganda, o'quv materiallari o'zlashtirilishini rejalashtirish, nazorat qilish, baholash kabilarni tushunadilar. Talabalar varaqa savollariga bergan javoblardan ma'lum bo'lishicha, ularda o'quv faoliyati tizimini tasavvur etishdan tashqari, uni boshqarishning ayrim imkoniyatlari yuzasidan muayyan bilimlar ham bo'ladi. Tajribada ishtirok etgan 730 nafar sinaluvchilarning 15 foizi shaxsiy faoliyatni boshqarish deganda o'zlashtirilayotgan o'quv materiallarini ko'p marta takrorlash jarayonini tushunadilar, uning bosh maqsadi matnning mohiyatini aniq anglashdan iborat deb biladilar. Masalan, "Materiallarni o'zlashtirish uchun ularni o'qiymen, takrorlayman, lekin hech qachon uni o'zlashtirish maqsadida oqilona yo'l, usul yoki vositalarni qidirib o'tirmayman" Talabani bu mulohazasi ana shu toifadagi barcha tengdoshlariga ham xosdir.

Ayrim talabalar o'z javoblarida biror xususiyatga ega bo'lgan materiallarni o'zlashtirishning usullarini ham yozganlar. Quyi kurs javoblaridan biri: "Men avval o'quv materialini qismlarga ajrataman, so'ng ular o'rtasida mantiqiy uyg'unlikni vujudga keltiraman, muhim va birlamchi alomatlarini topishga harakat qilaman. Mazkur materialni oldingisi bilan solishtiraman, o'xshash va farqli jihatlarni aniqlayman". Xuddi shunga o'xshash javoblar talabalarning to'rtidan bir qismidan olindi. Ularning 85 foizi o'quv faoliyatini boshqarishning ayrim tarkibiy qismlarini ifodalay olganlar. Ammo ko'pchiligi o'quv faoliyatini boshqarishning umumlashgan usullarini ta'riflash, anglash, faoliyatning harakatlarini qanday tartibda amalga oshirishni tasavvur qilishdan ancha yiroqdirlar. Shunga qaramay, talabalarda taqqoslash, reja tuzish, ma'ruza va birlamchi manbalarni konspektlashtirish bo'yicha ma'lum tushunchalar mavjud. Biroq bu borada ham ayrim nuqsonlar uchraydi. Talabalar rejalashtirish, konspektlashtirish, ta'limiy usullardan foydalanishga qo'yiladigan umumiy talablarni aniq ko'rsatishda qiynaladilar, muammo doirasidan chetlashadilar va hokazo.

Mana shu qiyinchiliklarni mohiyati va shakliga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin:

1. Bilishdagi qiyinchiliklar: o'rta maktab va oliy o'quv yurtidagi o'quv materiallarining mazmun va ko'lami jihatdan keskin farqlanishi; oliy o'quv yurtida o'qitishning turli shakl va usullari (ma'ruzalar, seminar mashg'uloti, kollokvium, sinov, bahs, amaliy mashg'ulot, maxsus praktikum, maxsus seminar, maxsus kurs va hokazolar) mavjudligi o'quv matnini,

ma'ruza va seminar materiallarining murakkabligi, muammoligi, ilmiyligi, talabalarda mustaqil bilim olish malakalari yetishmasligi; ularning murakkab oliy ta'limga to'la tayyor emasligi.

2. Ijtimoiy – psixologik qiyinchiliklar: atrof-muhit va hayot sharoitining o'zgarishi; hayot va faoliyatning barcha jabhalarida mustaqillikka o'tilishi: irodaviy zo'r berish, qobiliyat, aqliy imkoniyatlar bo'yicha qat'iyatsizlik: masalan, sessiyalarda, o'qishdan haydalishtan cho'chish, qo'rqish, xavfsirashning paydo bo'lishi.

3. Kasbiy qiyinchiliklar: oliy o'quv yurti mutaxassisligini tanlashdan ikkilanish; oliy maktab shart - sharoitlariga moslashish jarayonini noto'g'ri tasavvur qilish; ta'lim olish usullari va vositalarini ko'nikma, malaka va odatlarini egallashda orqada qolish, turli xususiyatga ega bo'lgan mutaxassislik – ixtisoslik amaliyotidan unumli foydalana olmaslik; nazariy bilimlar bilan amaliyotning ajralib qolgani; talabalarining professiogrammadan xabarsizligi yoki professiogramma talablariga javob beradigan kasbiy fazilatlarga ega emasligi.

Mana shu qiyinchiliklarning barchasi oliy maktab muhitiga moslashish bilan bog'liqdir. Tajribadan ma'lumki, oliy maktab muhitiga moslashishda talabalarining o'ziga xos tipologik va yosh xususiyatlari, aqliy imkoniyatlari, aql-zakovati, axloqiy fazilatlari, etnik alomatlarini ma'lum darajada rol o'ynaydi.

Qiyinchilikning asosiy sabablari talabalar o'quv faoliyatining to'g'ri usullarini bilmasligi, aqliy mehnatda kuch va imkoniyatlarni bir tekis taqsimlay olmasligidan iborat bo'lib, bular aqliy zo'riqishning negizi hisoblanadi. Talabalarda vujudga kelgan aqliy zo'riqish tasodifiy psixologik hodisa emas, uning zahirida shaxsiy o'quv faoliyatini oqilona boshqarish uquvining zaifligi yotadi.

Shunga ko'ra, oliy o'quv yurti talabalari ko'pincha o'quv materiallarini o'zlashtirishda bu faoliyatni tasodifiy boshqarishga harakat qiladilar. Bunda muayyan materiallar mantiqiy harakat bilan eslab qolinsa, qolganlari mutlaqo diqqatdan uzoqlashtiriladi. Natijada ular ma'ruzaning bir qismini tinglaydilar, uning mohiyatini bazo'r anglaydilar, uni konspektlashtirishga ulgurmaydilar. O'quv yili mobaynida ana shu holning davom etishi qishki va yozgi sessiyalarini talaba uchun qattiq sinovga aylantiradi. Shunga ko'ra, oliy o'quv yurtining asosiy vazifalaridan biri talabani o'quv materiallarining asosiy manbalari bilan ishlashga o'rgatishdan, uning mustaqil bilish faoliyatini tashkil qilishdan, uni o'zini boshqarish usullari bilan tanishtirishdan iboratdir. Ma'lumki, oliy maktabda mustaqillikva mustaqil o'quv faoliyatini uyushtirish talab qilinadi.

Oliy ma'lumot olish talabaning maqsadga muvofiq, muntazam, rejali, izchil o'quv faoliyatini ta'limning barcha bosqichlarida amalga oshirishini taqozo etadi.

Oliy maktab psixologiyasi fanida talabalarining o'quv faoliyati auditoriya va auditoriyadan tashqari qismlarga ajratiladi. Shu bilan birga talabalar oldiga o'quv faoliyatining tarkibiy qismlari bilan bog'liq muayyan qoidalariga rioya qilib hal etiladigan masalalar ko'riladi:

1) qanday yo'l bilan auditoriyada to'g'ri o'qish va o'qitish mumkin?

2) qay yo'sinda auditoriyadan tashqari vaqtlarda mustaqil faoliyatning umumlashgan usullaridan foydalansa bo'ladi?

3) ma'ruzada talabani aqliy faoliyati uchun optimal shart - sharoitlar qanday yaratiladi?

4) amaliy va seminar mashg'ulotlariga tayyorlik darajasini qanday aniqlash va ifodalash mumkin?

5) talabani attestatsiya va sinovlarga tayyorgarlik saviyasini aniqlash imkoniyati bormi va hokazo.

Mazkur fanda ma'ruzaning muhim beshta turi qonuniy ravishda tavsiflangan. Ular axborot beruvchi, yo'naltiruvchi, rag'batlantiruvchi, metodik, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ma'ruzalar deb ataladi. Ana shu ma'ruzalarning sifatini baholashda quyidagilar hisobga olinadi:

1. Ma'ruzaning mazmuni (g'oyaviy - siyosiy yo'nalishi, ilmiyligi, ommabopligi, nazariya bilan amaliyotning birligi, empirik materiallar ko'lami, bayon qilish shakli va boshqalar).

2. Talabani o'ylashga, bosh qotirishga yetaklovchi materiallarning muammoli bayon qilinishi (uning darajalari, jabhalari, jihatlari, davriyligi kabilar).

3. Ma'ruzaning asosiligi (yaqqol dalillar bilan mustahkamlanuvchi nazariy qoidalarining haqqoniyligi, lo'ndaligi).

4. Ma'ruzaning mutaxassislar kasbiy tayyorgarligi darajasiga bog'liqligi (qay darajada, qay shaklda, qayyo'sinda).

5. Ma'ruzaning tizimi (rejaliligi, tartibliligi, yig'inchoqligi, umumlashganligi).

6. Ma'ruza o'qish usuli (ko'rsatmalilik, jonli nutq, his-tuyg'uga boyligi, material bayonining sur'ati, o'rinli to'xtalish, mantiqiy urg'u).

7. O'qituvchining talabaga munosabati (e'tiborliligi, talabchanligi, samimiyligi, mehribonligi, odobliligi).

8. Auditoriya bilan aloqa qilish (bevosita, jonli, yakkama-yakka, guruhiy, jamoaviy, uzluksiz, ahyon-ahyonda).

9. Talabalarning ma'ruzadagi davomati (akademik guruhning to'la qatnashuvi, bir oz kamchiligi, umuman kamchiligi).

10. Ma'ruzani konspektlashtirish (ko'pchilik tomonidan, yarmisi, ayrimlari).

11. Lektorlik faoliyatini boshqarish (erkin, ishonch bilan, tezisga asoslanib bayon qilish, ma'ruza konspektidan uzoqlashmay bayon qilish).

12. Maqsadga erishish (ishlab chiqilgan yo'llar, sinalgan vositalar, egallangan usullar, shaxsiy nuqtai nazarni bayon qilish, talabani mustaqil holda ishlashi uchun imkoniyat yaratish va boshqalar).

Ma'lumki, oliy maktabdagi o'quv-tarbiya jarayonida ma'ruza bilan seminar mashg'ulotlari bog'lanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Seminar mashg'ulotlari asosan talabalarda tafakkurning tanqidiyligi, mahsuldorligi kabi aqlning zarur tarkibiy qismlari shakllanishiga qaratilgan bo'ladi. Seminar mashg'ulotlarida o'qituvchi o'rganilayotgan muammo yuzasidan talabalarning bilimlarini tekshirishi, ularda tafakkurning mustaqilligini,

mahsuldorligi, teranligini oshirishi, atrof-muhitga munosabatni shakllantirishi, ularga ilmiy nazariyalar, kontseptsiyalar bo'yicha shaxsiy fikrlarini bildirishni o'rgatishi kerak.

Seminar mashg'uloti talabani o'z o'quv faoliyatini boshqarishida muhim rol o'ynaydi. Masalan, ta'limning turli shakllarida (mustaqil ishlar, to'g'arak mashg'ulotlari, ilmiy-tadqiqot, ma'ruza va bahslarda olingan bilimlar yaqqollashadi, tartibga tushadi, yanada chuqurlashadi, mustaqil bilim olish malakalari o'sadi, aqliy mehnat usullari o'zlashadi, og'zaki va yozma nutq takomillashadi). Oliy maktabda ko'pincha seminar mashg'ulotining ikki turidan foydalaniladi:

a) seminar rejasiga kirgan masalalardan har birini alohida keng muhokama qilish;

b) har bir talabani o'rganilayotgan mavzu yuzasidan ma'ruzasini tinglash. Bizningcha, seminarning ikkinchi turi keng ko'lamda axborotlar almashishi imkoniyatiga ega. Chunki unda dolzarb muammolar, qonuniyatlar, xususiyatlar bo'yicha mulohaza yuritiladi va tegishli qarorga kelinadi.

Tajribalarda talabalarning seminar mashg'ulotidagi faoliyati quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Seminar mashg'ulotiga chiqishning muayyan maqsadga yo'nalgani (masalaning qo'yilishi, bo'lg'usi mutaxassislikda nazariy bilimlarni amaliy bilimlarga bog'lash).

2. Talaba ma'ruzasining rejasini: oqilona rejalashtirish, masalani birlamchi va ikkilamchi alomatlariga ajratish, bibliografiyani to'g'ri tuzish (nodir, yangi va kasbga oid manbalar tanlangani).

3. Talabani xulqi: o'rinli bahslashuvi, to'g'ri javobi, materialni chuqur tahlil qilishi, dalilni qayta bayon etishi, o'z nuqtai nazarini mavjudligi, ixcham va lo'nda tahlil; ma'ruzaning zerikarliligi, bo'shligi.

4. O'zaro aloqa: talabani kursdoshlariga tanqidiy, samimiy, e'tirozli munosabati; seminar qatnashchilari bilan tez muloqotga kirishish imkoniyati.

5. Talabani mashg'ulotni ishonch bilan, mutaxassislarcha yakunlashi, tengdoshlari bilimini boyitishi yoki aksincha; seminar barcha holatlar va munosabatlarni yozib borishi, unga o'z qarashlarini bildirishi.

Ma'ruza va seminar mashg'ulotlari samaradorligini oshirish uchun quyidagi psixologik holatlarga e'tibor berish lozim:

1. Matn va birlamchi manbalar bo'yicha muhim va nomuhim belgi hamda alomatlarini ajratish yoki mavhumlashtirish.

2. O'zlashtirilayotgan o'quv materiallarini o'z vaqtida tahlil qilib borish va umumlashtirish.

3. Talaba o'quv materialini idrok qilishi uchun aqliy faoliyatining barcha jabhalari bo'yicha yo'l-yo'riqlar berish.

4. O'qituvchi nutqidan xayolan ilgari ketib, uning yakunlovchi fikrini oldindan fahmlay bilish va boshqalar.

Shunday qilib, ma'ruza va seminar mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish bilan oliy maktabdagi ta'lim va tarbiya jarayonida kamol toptiruvchi hamda tarbiyalovchi printsiplarni amalga oshirish, talabalarga o'zini o'zi boshqarishni o'rgatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.S.Safayev tomonidan “Talabalarda milliy o’zlikni anglashning psixologik xususiyatlari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi
2. Davletshin M.G. Tanlangan ilmiy ishlar to’plami. – Toshkent: 2008. -B.81
3. Karimova V, Akramova F. Psixologiya(ma’ruzalar matni). T: 2002. -B.103
4. G’oziyev E. G’. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). Toshkent, “O’qituvchi”, 1994. -B.224,228
5. G’oziyev E. G’. Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent, Universitet, 1997. -B.80
6. G’oziyev E. G’. Faoliyat va xulq–atvor motivatsiyasi. Toshkent, Universitet, 2003. -B.124
7. G’oziyev E. G’. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent, 2006. -B.164,166
8. G’oziyev E. G’. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2010. -B.544

INTERNET MANBALARI

1. www.pedagog.uz
2. ZiyoNet.uz